

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TUXTASINOV ABROR RUSTAMOVICH

**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING ETNOPEDAGOGIK
MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Tuxtasinov Abror Rustamovich

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi..... 3

Тухтасинов Аброр Рустамович

Методика совершенствования этнопедагогической культуры будущих учителей музыки 21

Tukhtasinov Abror Rustamovich

Methodology for improving the ethnopedagogical culture of future music teachers 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TUXTASINOV ABROR RUSTAMOVICH

**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING ETNOPEDAGOGIK
MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4576 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Panjiyev Qurboniyoz Berdiyevich
pedagogika fanlari doktori (Dsc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matilyuba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Tashmatova Kamola Abdurashidovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 7-may soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (39 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 16-aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil 16-apreldagi 6 raqamli reestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kutubi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

A.O.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim tizimida global axborot makonining jadal rivojlanishi va kadrlar tayyorlash masalalari etnopedagogik madaniyatning nazariy asoslariga tayanib amalga oshirilmoqda. Jamiyatda sodir bo'layotgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri vositasida, ularning uzluksizlik mexanizmlarining zaiflashuvi o'rnini ommaviy axborot vositalari tomonidan doimiy ravishda targ'ib qilinadigan va ijtimoiy stereotiplar shaklida ommaviy ongda salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda. Bo'lajak o'qituvchi kadrlarini tayyorlashda etnopedagogik madaniyat imkoniyatlaridan foydalanishning samarali mexanizmlari, metod va usullarini ta'lim tizimiga keng tadbiiq etish zarurati ortmoqda.

Jahon ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida talabalarning ijtimoiy dunyoqarashi, ularning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Globallashtirish sharoitida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini yuksaltirish, ta'lim jarayonini mazkur maqsad vositasida loyihalash, modellashtirish, uning metodik ta'minotini amaliyotda qo'llash, o'qitishda modulli ta'limni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish asnosida etnopedagogik madaniyat va dunyoqarashga ega, zaruriy, umummadaniy, psixologik-pedagogik va fan-kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan jamiyatning milliy xususiyatlarini o'zida saqlaydigan kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar, uning umumiy yangilanishi munosabati bilan pedagog kadrlar tayyorlashga berilayotgan ahamiyat o'zini to'la oqlamoqda. "Gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash"¹ kabi vazifalarning ijrosi zamonaviy oliy ta'limning maqsadli yo'naltirilganligi, etnopedagogik madaniy kompetensiyaga asoslanganligi bilan ifodalanmoqda. Bu borada musiqiy ta'lim birlamchi bo'lib bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishning sifat va samaradorligiga xizmat qiladigan, etnopedagogik madaniyatning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmlari, shakl, usul, vosita va metodlari mazmunini takomillashtirish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda R.Abdullayev, I.Akbarov, A.Baxriyev, V.Belyayev, O.Ibrohimov, F.Karomatov, O.Matyoqubov, N.Mironov, A.Nazarov, Q.Panjiyev, I.Rajabov, G‘ofurbekov T, N.Turg‘unova, V.Uspenskiy, G‘.Xudoyev tadqiqotlarida musiqaning ifodaviy-ruhiy, badiiy-tasviriy, pedagogik, etnopedagogik, madaniy imkoniyatlari tadqiq qilingan².

MDH olimlaridan A.Arnoldov, P.Gurevich, L.Kogan, I.Isayeva, V.Slastenina, R.Fatyuxova, V.Stepinlarning tadqiqotlarida madaniyat, shuningdek, kasbiy va etnopedagogik madaniyat masalalari o‘rganilgan³.

Xorijlik olimlaridan I.Gerbert, G.Ginsburg, S.Feinberg, K.Helvetius, Ya.Komenskiy, I.Pestalozzi asarlarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish masalalari tahlil etilgan⁴.

² Abdullayev R. va boshq. O‘zbek musiqasi tarixi xrestomatiyasi. – Moskva: Letopisi печати УзССР, 1981. – 245 b.; Akbarov I. Uzbekская народная инструментальная музыка. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. – 445 с.; Baxriyev A. Maktab repertuari asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2022. – 244 b.; Beleyev V. Туркменская музыка. I том. – Москва: Советское искусство, 1928. – 446 b.; Ibrohimov O. va boshq. Musiqa tarixi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 312 b.; Karomatov F. O‘zbek xalq musiqa merosi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1985. – 300 b.; Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004. – 224 b.; Миронов Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов востока. – Самарканд: Инмузхаруз, 1931. – 301 с.; Назаров А. Музыкальные традиции Среднего и Ближнего Востока: вопросу о динамической целостности культуры (Музыкальное, театральное искусство и фольклор народов Средней Азии). – Ташкент: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1989. – 360 с.; Panjiyev Q. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 344 b.; Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: O‘zadabiy nashr, 1963. – 126 b.; G‘ofurbekov T. O‘zbekiston musiqa madaniyati. – Toshkent: Musiqa, 2019. – 256.; Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik san‘ati. – Namangan: Fazilatorgtxservis, 2016. – 124 b.; Успенский В. История узбекской советской музыки. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1972. – 380 с.; Xudoyev G‘. Vuxoro mumtoz musiqa an‘analari. Monografiya. – Toshkent: Donishmand-ziyosi, 2024. – 184 b.

³ Арнольдov А. Культурное наследие: свет миру. – Москва: Грааль, 2006. – 380 с.; Гуревич П. Культурология. – Москва:Юнити-Дана, 2011. – 280 с.; Коган Л. Личность и культура. – Москва: Социализм и личность, 1979. – 400 с.; Исаева И. Традиционные культуры для вашего сада. – Москва: Росмэн, 2007. – 319 с.; Сластинина В. Целостный педагогический процесс как объект профессиональной деятельности учителя. – Москва: Школа-Пресс, 1998. – 354 с. Фатыхова Р. Теоретические основы формирования культуры педагогического общения: Дис. ... кан. пед. наук. – Москва, 2001. – 122 с.; Степин В. Научная картина мира в культуре техногенной цивилизации. – Москва: ИФ РАН, 1994. – 288 с.;

⁴Герберт И. Нечто об общих причинах, кои в государствах ведут или к росту, или к падению нравственности. – Ольденбург: Rower, 1797. – 356 с.; Гинзбург Г. Статьи. Воспоминания. Материалы. Сост. Яковлев М. – Москва: Сов. композитор, – 1984. – 192 с.; Фейнберг С. Рояль и голоса великих. – Ростов-н/Д: Феникс, 2011. – 244 с.; Helvétius K. Sur l‘homme, ses pouvoirs intellectuels et son éducation. – Fransiya: Paris, 1758. – 184 p.; Коменский Я. Великая дидактика. – Москва: Учпедгиз, 1638. – 298 с.; Pestalozzi I. hur Gertrude utbildar sina barn. – Brugge: Gessner nashriyoti, 1801. – 400 p.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FL-7523021174-raqamli "O'zbek va turk geontonimlarining lingvokulturologik, etnolingvistik tadqiqi" (2024-2026-yillar) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatining mazmuni va mohiyatini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va nazariy asoslash;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyat subyekti sifatida shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan cholg'u va xonandalik ijrochilik mashg'ulotlari metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishning maqsad, yondashuvlar, tamoyillar, mazmun, shakllar, usullar va vositalarning birligini aks ettiruvchi tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining cholg'u va ijrochilik mashg'ulotlari jarayonida etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish pedagogik shartlarning ishonchliligi va to'g'riligini tajriba-sinov tekshirish, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik tahlil qilish va samaradorlik ko'rsatgichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan davlat pedagogika instituti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika institutining 366 nafar talabalar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish va rivojlantirish jarayonining metodik asoslari, tamoillari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, dalillash, mustaqil ish kuzatish, so'rovnoma, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, savol-javob, usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari xalq musiqa ijodining funksional aspektlari va akseologik yondoshuv tajribasiga tayanilgan holda pedagogik, kasbiy va shaxsiy qadriyatlarga ijodiy reflektiv va pedagogik verbal, noverbal interaksiya asosida aniqlangan;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi "ustoz-shogird", "improvizatsiya", "loyihalash", "quloq bilan eshitish" hamda ijtimoiy loyihalarida volontyor sifatida ishtirok etish kabi usullar mazmunini ifodalovchi motivasion, kognitiv-texnologik, samarali-ijodiylik, nazariy-tayyorgarlik komponentlarini aniqlash, nazariy va amaliy bilimlarni etnopedagogik faoliyatda differensial va integral qo'llash asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kasbiy etnopedagogik madaniyat mezonlari o'qituvchi kasbiga qiziqishni faollashtirish, kasbiy bilim, ko'nikma, ijrochilik hamda pedagogik malakalarni amaliyotga qo'llash usuli sifatida kasbiy faoliyat va ta'lim traektoriyasida badiiy va kommunikativ kollaboratsiya kontekstida motivasion, nazariy texnologik, samarali ijod qobiliyatlarini kommunikativ-individual aniqlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish modeli talabalarning motivasion, ijodiy, kasbiy, kognitiv, kommunikativ qobiliyatlarining kasbiy imkoniyatlarini improvizasion ko'nikmalar kontekstida kompleks-diagnostik aniqlash va funksional-kreativ rivojlantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha "Musiqiy ekskursiya", "O'zingni o'zing rivojlantir" texnologiyalari ishlab chiqilgan;

"O'zbek xalq musiqa ijodi" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. G'arb va Sharq olimlarning ilmiy-ma'rifiy, ilmiy-nazariy qarashlari, falsafiy, psixologik, pedagogik, musiqashunoslik, etnomusiqashunoslikga oid turli ilmiy manbalar asosida olib borilgan tadqiqot usullari, o'rganilgan tadqiqot jarayonining maqsadi, predmeti, obykti, vazifalari va xususiyatlariga, asoslangan yangiligining tajriba-sinov tekshirish natijalariga muvofiqligiga asoslangan holda aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishning nazariy-metodik asoslarini tizimli ravishda yoritib berilganli, etnopedagogika, milliy tarbiya, xalq og'zaki ijodi hamda o'zbek xalq musiqa merosi negizida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish omillari ilmiy jihatdan tadqiq etilganligi, pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar, metodlar va vositalarning samarali modeli ishlab chiqilganligi, etnopedagogik yondashuv asosida musiqa ta'limi mazmunini boyitish, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda talabalar shaxsida milliy musiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlari tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va pedagogik model oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga samarali joriy etilishi, xususan, musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda etnopedagogik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar, interfaol metodlar, amaliy topshiriqlar hamda tarbiyaviy tadbirlar tizimini tashkil etishda tadqiqot natijalaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar pedagogika oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, shuningdek umumta'lim maktablari musiqa fani o'qituvchilari faoliyatida qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari xalq musiqa ijodining funksional aspektlari va akseologik yondoshuv tajribasiga tayanilgan holda pedagogik, kasbiy va shaxsiy qadriyatlarga ijodiy reflektiv va pedagogik verbal, noverbal interaksiya asosida aniqlangan xulosa va takliflardan "O'zbek xalq musiqa ijodi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-son buyrug'iga asosan berilgan nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarda etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metod, usul va vositalarining pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish imkoniyati oshirilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi "ustoz-shogird", "improvizatsiya", "loyihalash", "quloq bilan eshitish" hamda ijtimoiy loyihalarida volontyor sifatida ishtirok etish kabi usullar mazmunini ifodalovchi motivasion, kognitiv-texnologik, samarali-ijodiylik, nazariy-tayyorgarlik komponentlarini aniqlash, nazariy va amaliy bilimlarni etnopedagogik faoliyatda differensial va integral qo'llash asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan "O'zbek xalq musiqa ijodi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-son buyrug'iga asosan berilgan nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak musiqa o'qituvchisining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodlari orqali talabalarining individual qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarda kasbiy etnopedagogik madaniyat mezonlari o'qituvchi kasbiga qiziqishni faollashtirish, kasbiy bilim, ko'nikma, ijrochilik hamda pedagogik malakalarni amaliyotga qo'llash usuli sifatida kasbiy faoliyat va ta'lim traektoriyasida badiiy va kommunikativ kollaboratsiya kontekstida motivasion, nazariy texnologik, samarali ijod qobiliyatlarini kommunikativ-individual aniqlash asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan "O'zbek xalq musiqa ijodi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-son buyrug'iga asosan berilgan nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining cholg'u va xonandalik ijrochilik mashg'ulotlar jarayonida etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish modeli talabalarining motivasion, ijodiy, kasbiy, kognitiv, kommunikativ qobiliyatlarining kasbiy imkoniyatlarini improvizasion ko'nikmalar kontekstida kompleks-diaagnostik aniqlash va funksional-kreativ rivojlantirish asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan "O'zbek xalq musiqa ijodi nomli" o'quv qo'llanma tayyorlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti 2025-yil 31-yanvardagi 11-05-678/04-son buyrug'i asosida berilgan ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarda etnopedagogik madaniyatga oid musiqiy-ijodiy qobiliyatlar, badiiy-estetik didini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 151 sahifani tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishning mazmuni va nazariy asoslari, uning kasbiy faoliyatidagi o'rni va ahamiyati hamda etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik shartlari kabi masalalar tahlil qilindi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida, uning etnopedagogik madaniyati asosiy va muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining “kasb madaniyati” tushunchasini tahlil qilish barobarida uning bir qator ko'rinishlarini keltirib o'tamiz. Ya'ni, “kasb madaniyati”, “kasbiy madaniyat”, “pedagogik madaniyat”, “musiqiy madaniyat” “etnopedagogik madaniyat”. Eng avvalo musiqa pedagogikasi ta'limi tizimida “madaniyat” tushunchasiga murojaat etamiz.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy madaniyati deganda – uning mehnat taqsimoti va ijrochiligining kasbiy amaliy va ma'naviy faoliyatining turli sohalarini tabaqalash jarayonlari bilan shartlashgan va ixtisoslashgan shakllaridan biri tushunildi.

Etnopedagogik faoliyat – bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy mehnat faoliyati darajasini belgilovchi ijtimoiy fazilatlar tizimidir. G.I.Gaisina, I.F.Isayevlar o'zlarining tadqiqotlarida kasbiy madaniyat haqida so'z borganda bu – “mehnat sub'ektining ijtimoiy-kasbiy sifati” deb baholaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyati faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yana bir kasbiy-pedagogik tushuncha bu – “pedagogik madaniyat”dir. “Pedagogik madaniyat” – tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotiga kiritilgan bo'lib, uning mazmuni masalasi ustida kengroq tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Qabul qilingan uslubiy asoslarga tayangan holda shuni alohida

ta'kidlash kerakki, kasbiy-pedagogik madaniyatning u yoki bu modelini asoslaydigan muayyan xilma-xil yondashuvlar mavjud.

Uning tarkibiy qismlari sifatida kasbiy faoliyatda: aksiologik, texnologik, shaxsiy-ijodiy; evrestik, shaxsiy-amaliy tajriba, kasbiy-amaliy mahorat; pedagogik faoliyatda: pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat, xususiy maxorat, faol pedagogik tajriba; o'zini o'zi boshqarish va tartibga solish, pedagog-o'qituvchining odob-axloq madaniyati.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida pedagogik madaniyati tuzilishini quyidagi uchta komponentga ajartish mumkin. Bular: kognitiv; qadriyatli (odob-axloq); xissiy-irodaviy.

Mazkur tushunchalarni o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha izohlanadi. Ya'ni: kognitiv – kasbiy pedagogik madaniyatning kasb ahamiyatiga ega bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat algoritamlari, kasbiy fikrlash xususiyatlari; qadriyatli (odob-axloq) – kasbiy xulq-atvor stereotiplari, kasbiy-moddiy ob'ektlar majmui, kasbiy mehnatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat vositalari; xissiy-irodaviy – o'zida yuksak ijrochilik an'analarini mujassam etishi, istalgan sharoitda namoyon eta olishi; kasbiy-ruhiy tayyorgarligi, tajriba, mahoratini namoyish eta olishi.

Tilga olingan ushbu komponentlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy pedagogik madaniyati bo'lib, u "bilim", "ko'nikma", "kasbiy kompetensiya", "qadriyatlar", "qiziqishlar", "amaliy faoliyat" va "xulq-atvor" normalarini sifatli rivojlanishi bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri mehnat unumdorligi natijasi hisoblanadi.

Aynan shunday yondashuvlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik madaniyati "o'qituvchining mulkiga aylangan ijtimoiy-pedagogik madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, uning kasbiy-pedagogik yo'nalishlarining tabiati va darajasini, pedagogik va kasbiy kompetensiyasini, umummadaniy bilim, ko'nikma, ish tajribasi, asosiy faoliyat turi hisoblangan – kasbiy ijrochiligida individul xattixarakteratlari ifodalangan shaxsiy fazilatlar darajasiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy ijrochiligida namoyon bo'lishi musiqiy va pedagogik madaniyat bo'lib, u o'z navbatida "musiqiy madaniyat" va "pedagogik madaniyat" tushunchalarining ma'nosini ochib berishga xizmat qildi.

"Pedagogik faoliyat" tushunchasi ham bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy ijrochiligi faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Pedagogik faoliyat – "keksa avlodlardan yosh avlodlarga insoniyat tomonidan ta'lim va tarbiyada to'plangan boy madaniy tajribani o'tkazish, doimiy ravishda ularning shaxsiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, amalga oshirish mexanizmlarini taklif qilish, ularni kishilik jamiyatida vazifalarini bajarishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turidir. Olimlar ilmiy nazariya va o'z qarashlarida pedagogik faoliyat bilan har bir shaxs o'z ixtiyori bilan yosh avlodga o'zini o'zi tarbiyalash, nazorat qilish, ta'lim olish, bilish, turli nazariyalar ustida ishlashda kasbiy-pedagogik faoliyat xususiyatlarini o'rgatishni qo'llab-quvatlaydilar.

"Musiqiy faoliyat" tushunchasiga keladigan bo'lsak, u turli ilmiy sohalarda "musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, cholg'ushunoslik, kasbiy ijrochiligi, ijrochilik asoslari, pedagogika, psixologiya, falsafa" nuqtai nazardan kategorik talqin etadiladi. Hozirgi vaqtda eng ko'p va keng tarqalgan musiqa faoliyatning mohiyatini, uning asosiy ko'rinishlarida talqin qilish – musiqa asarini ijro etish, musiqa yaratish,

xisiy-irodaviy idrok etishdir. Ushbu falsafiy yondashuvlar musiqiy va badiiy faoliyatni insonning musiqa bilan o‘zaro munosabati jarayoni sifatida tushunib olishni taqazo etib, uning musiqiy dunyoqarashlarida o‘z aksini topadi. O‘zbek musiqa merosida shakllangan mahalliy musiqa an‘analari tizimini shakllanishining dastlabki bosqichlarida insonni cholg‘u musiqasi turlari bilan tanishtirish uchun, uning ko‘p jihatdan utilitar ma‘noga ega. Keyinchalik odamlar orasida diniy, maishiy, mavsumiy, oilaviy, mehnat munosabatlarini o‘zida namoyish etgan aytim va cholg‘u turlari keng qo‘llanilgan.

Kasbiy musiqaning ta‘lim va tarbiya masalalarida qo‘llanishida chet el olimlari D.Kabalevskiy, Jak Dalkroz, Karl Orf, Zoltan Kodaylarning xizmati katta bo‘ldi. Bu jarayon endilikda musiqa pedagogikasining asosiy g‘oyalariga aylanib ulgurdi.

Kasbiy fikrlash – bu bo‘lajak musiqa ta‘limi o‘qituvchisining musiqa ijrochiligida ijro etish madaniyati, uning mohiyati, musiqa o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochiligida kasbiy tayyorlash jarayonida shaxsning musiqiy-estetik madaniyati va uning rivojlanishi ikkita asosiy komponentni – musiqiy faoliyat va musiqiy ongini, shuningdek, ularda mos keladigan kuy tizimlarini ajratib ko‘rsatadi. Umuman olganda musiqa ijrochiligi bo‘yicha bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni ijrochiligini rivojlantirishda musiqiylik, axborot, operativ, motivatsion va baholash komponentlaridan foydalanish pedagogik kuzatishlar natijasida aniqlandi.

Badiiy madaniyat – bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsiyatining kasbiy faoliyati sifati bo‘lib, u o‘quv jarayonidagi tizimli bilimni nazarda tutadi. Ushbu faoliyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u ikki ijtimoiy-madaniy soha – pedagogika va kasbiy madaniyatni o‘zaro kesishgan xududda sodir bo‘lib, nisbiy avtonomiyaga ega bo‘lgan va ayni paytda ularning ta‘siridan butunlay holi bo‘lmagan tuzilmani tashkil qildi. Aniqlik kiritamizki, biz “madaniy maydon” tushunchasini ijtimoiy maydon nazariyasi qoidalariga asoslanib foydalandik. Ushbu nazariyaga ko‘ra, ijtimoiy-madaniy maydon “san‘at, adabiyot yoki fanni ishlab chiqaradigan, ko‘paytiruvchi va tarqatuvchi agentlar va muassasalar mavjud bo‘lgan makondir”.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy madaniyati uning predmetli faoliyatida “bastakor-ijrochi”, “ijrochi-tinglovchi”, “bastakor” tizimlaridagi o‘zaro muloqotda namoyon bo‘ladigan muayyan ma‘naviy-axloqiy munosabatlarni pedagogik voqelikka amalga oshirish sifatida amalga oshirildi. Bu munosabatlarning rivojlanishida talabaning ham, o‘qituvchining ham shaxsining rivojlanishi sodir bo‘ldi. Bularning barchasida tajriba muhim rol o‘ynaydi. Har qanday vaziyatda harakatlar modeliga aylangan bilim va ko‘nikmalarning qat‘iy birligi deb tushinish lozim bo‘ldi. Pedagogik va kasbiy madaniyatni bunday tushunish madaniyatni asosiy vazifasi – inson ijodkorligidan kelib chiqqadigan o‘ziga xos funksiyalarni aniqlashtirishga imkon berdi.

Kasbiy kompetensiya va kasbiy madaniyat tajriba orqali bog‘lanadi. Kasbiy madaniyat kontekstidagi tajriba nafaqat faoliyatni o‘zlashtirishni, balki shaxsning ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyatlarini amalga oshirishni ham nazarda tutadi. “Kasbiy kompetensiya” tushunchasini “kasbiy madaniyat” tushunchasiga nisbatan fundamental deb hisoblash mumkin, chunki uni qo‘llash uchun tegishli bilim va ko‘nikmalarni egallash zarurligini ko‘rsatdi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining

etnopedagogik madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi bu talaba shaxsining ma'naviy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud voqelikni o'zgartirish qobiliyatidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish mexanizmlari”** deb nomlanib, unda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishda tarkibiy-funksional yondashuvlar, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi tahlili etilgan bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metodikasi modeli ishlab chiqildi.

Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining kasbiy ijrochilik salohiyati ularning bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida etnopedagogik madaniyatini takomillashtirishiga ta'sir qilish mexanizmlarini ochib berish uchun ularning tegishli mavzulardagi ishlarda tasvirlangan tajribasini o'rgandik. Talabalarning o'qituvchi kasbiy faoliyat turlari (cholg'u va xonandalik ijrochiligi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi) tahlil maqsadiga qarab turli nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Ya'ni, musiqa-pedagogik faoliyatning bir jihati sifatida; talabalar oldida musiqa ijro etishga yo'naltirilgan motivator sifatida; talabalarining shaxsiy ijodiy yutuqlarini aktuallashtirish manbai sifatida; bo'lajak musiqa o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, ularning ijodiy qobiliyatlari, etakchilik fazilatlarini rivojlantirish omili sifatida; talabalarining badiiy va kognitiv faolligini rag'batlantirish sifatida; talabalarni madaniy va badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish vositasi sifatida; muallifning musiqiy matnining ovozli timsoli sodir bo'lgan inson faoliyatining bir turi sifatida; ijtimoiy va kasbiy jihatdan ahamiyatli fazilatlar va shaxsiyat xususiyatlarini takomillashtirish omili sifatida.

Pedagogikada “ta'lim shakli” va “ta'limni tashkil etish shakli” atamalarining mazmunini ajratish odatiy holdir: birinchi holda, bu “darsda yoki har qanday treningda talabalarining jamoaviy, frontal yoki individual ishi; ikkinchidan – “... qandaydir dars (dars, ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, yakka mashg'ulotlari, bahs-munozara, konferensiya, test, fan va badiiy to'garaklar, cholg'u va xonandalik ijrochiligi va boshqalar)”.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan fanlararo faoliyat turlari bilan belgilandi, xususan: guruh, ansambl, jamoaviy ijro va individual ijro; o'qituvchi tomonidan boshqariladigan amaliy topshiriqlarni talabalar tomonidan bajarish; talabalarining mustaqil ishi; talabalarining individual, ansambl, jamoaviy va guruh faoliyati; o'quv amaliyoti; ommaviy ijro; tematik kechalarni tayyorlash va o'tkazish; tanlovlar, festivallar, turli ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish; etakchi o'qituvchilarning mahorat darslari; musiqiy tadqiqot faoliyati va boshqalar.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy va etnopedagogik madaniyatini rivojlanishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan “Haqiqiy men va ideal men”, “Jonli ijro metodi”, “Musiqiy ekskursiya”, “O'zingni o'zing rivojlantir” kabi metod va texnologiyalardan unumli foydalanildi.

Kasbiy faoliyat asosiy funksiyalari – estetik, gedonistik, kompensatsion va “ko'paytirish” (birinchi navbatda, ta'lim, kommunikativ, axborot).

Ikkinchidan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy mahoratiga erishganligi kasbiy maqsadlarga erishish (talabalarni birgalikdagi musiqiy faoliyat orqali musiqa san'atiga faol jalb etish, talabalarining musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish) sharoitida turli ijro usullarini ravon egallashlariga yordam berdi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish metod va vositalarini tanlash va ishlab chiqish talabalar bilan ishlashning turli shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi: auditoriya mashg'ulotlari (amaliy, guruh, individual), ommaviy chiqishlarning turli shakllari (konsertlar, mavzuli kechalar, "musiqiy zallar", tanlovlar, festivallar va boshqalar), musiqiy tadqiqotlar, talabalarining o'quv va kasbiy faoliyati va boshqalardan unumli foydalanildi. O'quv jarayoniga "jonli ijro" metodi asosida musiqani ijro etish, fan mazmunini faol o'zlashtirish jarayonida talabalarining qo'shiq kuylashiga hamrohlik qilish va talabalarni vokal san'ati namunalari bilan tanishtirish jarayonida o'z qo'shiqlarini kuylash va h.k.

Uchinchi bosqichning ifodalangan natijasi musiqiy-pedagogik faoliyatning izlanish-transformativ xarakteri ochib berdi. Bajarilayotgan asarlarning qiymat-semantik mohiyatini pedagogik muammolarni hal qilish kontekstida anglash va uzatishning to'liqligi; musiqa pedagogikada o'zini o'zi tarbiyalash, shu jumladan cholg'u va xonandalik ijro mahoratini oshirish dasturining mavjudligi va amalga oshirish darajasi; kasbiy va pedagogik faoliyatning yangi g'oyalari va usullarini ishlab chiqarishda mavjud cholg'u va ijrochilik tajribasidan foydalanish o'lchovidir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining etnopedagogik madaniyatini takomillashtirish vazifalaridan biri bu bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy qadriyatlarini talabalar tomonidan o'zlashtirish jarayonini tashkil etish edi. "Musiqqa o'qituvchisining cholg'u va xonandalik ijrochilik faoliyati" maxsus kursi doirasida o'tkazilgan ma'ruzalar va seminarlar muhim rol o'ynadi. Bu darslarda talabalar musiqa-pedagogik madaniyat qadriyatlari, ularni musiqa o'qituvchisi faoliyatiga qanday tadbiiq etish mumkinligi haqida tushunchaga ega bo'ldilar. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini shakllantirishning ushbu bosqichida o'qitishning an'anaviy usullari – o'qituvchi tomonidan bilimlarni og'zaki bayon qilish (ma'ruza), o'rganilgan materialni mustahkamlash (darslik bilan ishlash) qo'llanilgan. Shuningdek, faol va interfaol usullardan – tayyorgarlikdan foydalanildi.

Tematik xabarlar va ularning muhokamasi metodi.

Masalan, talabalarga muhokama qilish uchun quyidagi mavzular taklif qilindi: "Musiqiy-pedagogik ijroning qadriyat yo'nalishlari", "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik faoliyatida umuminsoniy qadriyatlarni amalga oshirish", "Mening hayotimda musiqiy ijro" va boshqalar. Biz metro-ritmik metodikasidan foydalandik. Ushbu metod talabalarga musiqiy-ritmik tuyg'uni rivojlantirishga katta xizmat qildi. Ritm tuyg'usini shakllantirishga bunday yondashuv biz tomonidan chog'u va xonandalik asarlari ustida ishlash jarayonida vokal-nutq intonatsiyasi usuli orqali amalga oshirildi. Musiqa uchun quloq va ritm hissi bilan bir qatorda, asosiy musiqiy qobiliyatlar triadasi musiqiy xotirani o'z ichiga oladi. Yaxshi musiqiy xotira musiqa asarini tez yodlab olish, uni o'rganishdan keyin uzoq vaqt o'tgandan keyin ham doimiy saqlanishi va eng aniq takrorlanishidir".

Olimlar va musiqa ijrochilarning fikriga ko'ra, musiqiy xotira bu xotiraning vosita, hissiy, vizual, eshitish va mantiqiy turlarini qamrab oladigan xususiyatlar majmuasidir. Shunday qilib, talabalarga ana shunday tahlil qilish uchun turli janr, uslub va mazmundagi uchta asar taklif etildi: Bular o'zbek xalq musiqasi bilan bog'liq hamda o'zida etnopedagoik xususiyatlarni mujassam etgan asarlarni tashkil qildi. Bular "Yallama yorim", "Qo'ng'iro't", mexnat qo'shiqlaridan "Xo'p mayda".

Modelni ishlab chiqishda biz dastlab talabalarining kasbiy madaniyatining holatini uning asosi sifatida belgilaydigan dunyoqarash yo'riqnomalarining yo'nalishini nazarda tutdik. Bakalavriat talabalarining cholg'u va xonandalik ijrochiligi hamda musiqa savodxonligi faoliyati bo'yicha kasbiy tayyorgarlikni va talabalar bilan tanishishi kerak bo'lgan deyarli barcha uslub va janrdagi keng asarlardan iborat repertuar tanlash va uni yuqori darajada egallashni talab qiladi.

Model maqsadining mantiqiy asosi ijtimoiy faol, yuqori professional, ijodiy yo'naltirilgan bo'lajak musiqa o'qituvchisini tayyorlashning ijtimoiy buyurtmasi va bu tartibning umumlashtirilgan semantik xarakteristikasi talabalarining etnopedagogik madaniyati bo'lib, u yo'naltirilgan, ijodiy, samarali kasbiy va pedagogik faoliyat majmuidir.

Modellashtirilgan jarayonning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi model bloklari o'rtasida – taxminiy – maqsadli, nazariy – uslubiy, pedagogik shartlar, mazmun – protsessual va mezon-baholash munosabatlarining mavjudligi bilan belgilandi


